

EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARIDA VALYUTA HISOBI

Мисиров Аслиддин Мамасобирович

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
 «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси, стажёр асистенти
 misirovasliddin@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy bozor sharoitida korxonalar faqat milliy valyuta – so'mdan emas, balki har xil xorijiy valyutalardagi pul mablag'laridan foydalanmoqda va muomalalarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolada muallif eksport import operatsiyalarida valyuta hisobini buxgalteriyada to'g'ri hisobga olish va tahlil qilishga urindi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, eksport, import, tashqi savdo balansi, defitsit, valyuta kursi.

1. Kirish

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat munosabatlarni iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida rivojlantirish jarayonida, xo'jalik sub'ektlarida eksport va import operatsiyalari bo'yicha yuzaga keladigan hisoblashuv muomalalari hisobini to'g'ri amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olib borishni nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida korxonalar faqat milliy valyuta – so'mdan emas, balki har xil xorijiy valyutalardagi pul mablag'laridan foydalanmoqda va muomalalarni amalga oshirmoqda. Shu munosabat bilan valyuta boyliklari va muomalalari buxgalteriya hisobi ob'ektiga aylanmoqda. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydonidagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Prezident SH.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek «barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi. Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinnari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak. Uning uchun bozor iqtisodiyoti va davr talablariga mos ko'plab qonun va qarirlarni qabul qilyapmiz»[1].

Moliya vazirligi valyuta nazorati va O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligiga rioxat etilishini nazorat qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi[2].

Hech shubha yo'qki, tashqi iqtisodiy faoliyatda huquqiy normalarga rioxat qilish eksport-import

operatsiyalarini hisobga olish va nazorat qilishni shakllantirish va tashkil etishga, shuningdek iqtisodiy munosabatlarning ushbu sohasidagi valyutani tartibga solish tizimiga bevosita bog'liqdir.

2. Adabiyotlar sharhi

Eksport-import operatsiyalari samaradorligini va tashqi savdosini hisobga olishni takomillashtirish muammolari har doim xorijiy va mahalliy iqtisodchilarining diqqat markazida bo'lgan. R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, A.A.Karimov, D.K.Kudbiyev, S.U.Mexmonov, A.X.Pardayev, M.Q.Pardayev, M.M.To'laxodjayeva, A.J.Tuychiyev, B.A.Xasanov, B.Q.Xamdamov, I.N.Qo'ziyevlar kabi mahalliy tadqiqotchilar individual nazariy muammolarni o'rganishga va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga katta hissa qo'shdilar. Bundan tashqaru bir qator V.P.Astaxov, Y.A.Grigoryev, V.N.Jukov, M.B.Marel, G.V.Kulinina, N.V.Ulyanova va boshqa xorijiy olimlari mavzu doirasida o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borishgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida eksport-import operatsiyalarida valyuta hisobini yuritish va uning xozirgi holatini o'rganish, eksport-import operatsiyalari hisobini olib borish jarayonida mayjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish va eksport-import operatsiyalari hisobida xorijiy tajribalarni o'rganilgan. Mavzuni yoritishda adabiyotlar sharhi, ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

4. Tahliliy natijalar

Korxona valyuta schyotini O'zbekiston Respublikasining hududida istalgan vakolatli banklarda ochishi mumkin. Korxonaning chet eldag'i xorijiy bankda schyot ochishi va u bo'yicha muomalalarni amalga oshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ruxsati talab qilinadi. Buning uchun korxona ko'rsatilgan schyotlardagi mablag'lar qoldiqlari to'g'risidagi hisobotni hamda boshqa ma'lumotlarni Markaziy Bank belgilagan shakl va muddatlarda taqdim etishi shart.

Valyuta schyotini ochish uchun korxona bankka quydagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- valyuta schyotini ochish to'g'risidagi belgilangan shakldagi ariza;
- ustav va ta'sis shartnomasining notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- korxona tuzilganligi yoki ro'yxatga olinganligi haqidagi qarorning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- korxona ro'yxatga olingan joydagi soliq inspeksiysi va Pensiya fondida hisobga qo'yilganligi to'g'risida ma'lumotnomasi;
- imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan, notarial tartibda tasdiqlangan varaqcha (kartochka).

Korxonaning valyuta schyotlariga quydagi manbalardan pul kelib tushadi:

- eksport tovarlariga haq to'lash uchun vakolatli banklar orqali chet eldan o'tqazilgan summalar;
- hisobvaraqlar egasidan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lash uchun boshqa sohiblar (nerezidentlar, birinchi vositachilar, transport, sug'o'rtta va boshqa tashkilotlar)ning valyuta schyotlaridan o'tqazilgan summalar;

➤ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan ruxsat etilgan boshqa manbalar.

Xorijiy valyuta mablag'lari, qiymatliklari va muomalalari xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan sanaga Markaziy bank kursi bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi. Jumladan quydagar bo'yicha:

- kassadagi valyuta mablag'lari, bankdag'i depozit va ssuda schyotlari, akkreditivlar, valyuta ssuda qarzları;
- xorijiy valyutadagi debitor va kreditor qarzları;

- tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuk boj deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasiga import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning kirimi;
- bojxona to'lovlarning amalga oshirilishi;
- xorijiy valyuta ko'rinishidagi pulli hujjatlar;
- xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olish buxgalteriya hisobida muomala sodir bo'lган sanaga bo'lган Markaziy bank kursi bo'yicha aks ettiriladi.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olishda sodir bo'ladijan kursdagi farq ijobjiy bo'lsa – 9540-«Kurs farqlaridan olingan daromadlar» hisobvarag'ida, salbiy bo'lsa – 9620-«Kurs farqlaridan zararlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Xorijiy valyutaning sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- valyuta schyotidan xorijiy valyutani Markaziy bank kursi bo'yicha o'tqazilishi:

D-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag'ining «Blokschyt» analitik hisobvarag'i
K-t «Valyuta hisobvarag'i».

- Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani «Blokschyt»dan chiqarilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag'ining «Blokschyt» analitik hisobvarag'i.

- valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha sotilgan xorijiy valyutaning so'm ekvivalentining hisob-kitob hisobvarag'iga o'tqazilishi:

D-t «Hisob-kitob schyoti»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

- xorijiy valyutani sotishda hosil bo'lган ijobjiy kurs farqini Markaziy bank kursidan ortig'ining aks ettirilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Kurs farqlaridan olingan daromadlar».

- xorijiy valyutani sotishda hosil bulgan salbiy kurs farqining (Markaziy bank kursidan past) aks ettirilishi:

D-t «Kurs farqlaridan zararlar»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

O'zining mahsulot (ish, xizmat)lari narxi (tariflari)ni xorijiy valyuta ekvivalentida belgilaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyuta - so'mda olib boradilar. Xizmat ko'rsatgan sanada to'lanmalarни tushgan sanasigacha Markaziy bank kursining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladijan farq moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat) sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga olib boriladi.

Xorijiy valyutani sotib olish muomalalari buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvsular bilan rasmiylashtiriladi.

Valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha xorijiy valyutani sotib olish kuniga:

- xorijiy valyutani sotib olish uchun hisob-kitob schyotidan so'm ko'rinishidagi mablag'larni valyuta bozorida kelishilgan sotib olish kuniga bo'lган kurs bo'yicha o'tkazib berilishi:

D-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag'ining «Blokschyt» analitik hisobvarag'i

K-t «Hisob-kitob schyoti».

- Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutaning valyuta schyotiga o'tkazilishi:

D-t «Valyuta schyoti»

K-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag’ining «Blokschytot» analitik hisobvarag’i.

- xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan past kursda sotib olish natijasida sodir bo’lgan ijobjiy kurs farqining aks ettirilishi:

D-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag’ining «Blokschytot» analitik hisobvarag’i

K-t «Kurs farqlaridan olingan daromadlar».

- xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan yuqori kursda sotib olish natijasida sodir bo’lgan salbiy kurs farqining aks ettirilishi:

D-t «Kurs farqlaridan zararlar»

K-t «Banklardagi mahsus schyotlar» hisobvarag’ining «Blokschytot» analitik hisobvarag’i.

Mamlakat hududida va uning tashqarisida joylashgan bankdagi xorijiy valyuta schyotlaridagi pul mablag’larining harakati va holati to’g’risida umumlashtirilgan ma’lumot quyidagi hisobvaraqlarda amalga oshiriladi:

5210-«Mamlakat ichidagi xorijiy valyuta hisobvaraqlari»

5220-«Xorijdagи valyuta hisobvaraqlari».

Korxonaning valyuta mablag’lari hisobvaraqlari debetida korxona valyuta schyotlariga mablag’larning tushumi, kredit tomonida esa ushbu mablag’larning chiqimi aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida valyuta schyotlari bo’yicha muomalalar bank ko’chirmalari va ularga ilova qilingan pul-hisoblashish hujjatlari asosida olib boriladi. Korxona valyuta mablag’larining tahliliy hisobi xorijiy valyutada pul mablag’larini saqlash uchun bank muassasalarida ochilgan har bir hisobvaraq bo’yicha ochiladi.

1-jadval

Ekspert-import munosabatlarida valyuta

muomalalarini hisobga olish tartibi

№	Xo’jalik mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondentsiyasi		Yozuvlarni hujjatlar	tasdiqlovchi
		Debet	Kredit		
1.	Qarzdor korxonalar tomonidan uzoq muddatlari qarzlarning qaytarilishi	5210 - 5220	7820	Valyuta schyotidan ko’chirma	
2.	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan valyuta kirimining aks ettirilishi	5210	4010	Valyuta schyotidan ko’chirma	
3.	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishidan bankka kelib tushgan valyuta kirimining aks ettirilishi	5210	4010	Valyuta schyotidan ko’chirma	
4.	Valyuta mablag’larining kassadan valyuta schyotiga berilishi	5210	5010	Pul topshirish e’loni, valyuta hisobvarag’idan ko’chirma	
5.	Bankdan kassaga valyuta mablag’larining kelib tushishi	5010	5210	Valyuta schyotidan ko’chirma	

6.	Kelib tushgan TMZlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzning o'tqazilishi	6010	5210	To'lov topshiriqnomasi va valyuta schyotidan ko'chirma
----	--	------	------	--

Xorijiy valyuta harakati to'g'risidagi ma'lumotni bank muassasasi korxonaga valyuta schyotidan ko'chirma berish yo'li bilan xabar beradi. 5210-«Mamlakat ichidagi valyuta hisobvaraqlari»ning kredit oboroti 2/1-jurnal-orderda aks ettiriladi. Bu hisobvaraqnning debet oboroti 2/1-qaydnomani yuritish bilan nazorat qilinadi. Valyuta hisobvarag'i bo'yicha tahliliy hisob kartochkalarda, valyutalarning nomlari bo'yicha yuritiladi.

Xulosa

Shuni ta'kidlash zarurki, xo'jalik sub'ektlarida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalari hisobini tashkil etishning maqsadi bu foydalanuvchilarni korxona tashqi iqtisodiy faoliyatida yuzaga keladigan hisoblashuvlar bo'yicha asoslangan buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun buxgalteriya hisobi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- eksport-import operatsiyalarida yuzaga keladigan hisoblashuv muomalalarini o'z vaqtida buxgalteriya xujjatlarida aks ettirish;
- eksport-import operatsiyalari va ular bo'yicha chet el valyutasida ifodalangan hisoblashuvlar sintetik hisobini buxgalteriya hisobining alohida subschyotlarida yuritish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda chet el valyutasida ifodalangan hisoblashuvlar hisobini hisobotlarda aks ettirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda hisoblashuvlar bo'yicha yuzaga kelgan chet el valyutasida ifodalangan hisoblashuvlar haqida ma'lumotlarni alohida aks ettirish;
- hisoblashuv jarayonida chet el valyutasida ifodalangan hisoblashuvlar hisobi bo'yicha kurs farqlarini aks ettirish;
- eksport-import operatsiyalari va ular bo'yicha chet el valyutasida ifodalangan hisoblashuvlarda majburiyatlarni buxgalteriya schyotlarida o'z vaqtida to'g'ri aks ettirish;
- xo'jalik sub'ekti tashqi iqtisodiy faoliyatida hisoblashuv muomalalari hisobi bo'yicha asoslangan buxgalteriya axborotlarini shakllantirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni». 2017 yil 2 sentyabr. PF-5177.
2. O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni, 22.10.2019 yild O'zRQ-573-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. 2018 yil 01 avgust. PF-5495.
4. Qurbanov Z.N., Akramov F.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzARB masalalari. // Biznes-ekspert, 4-son. 2015.
5. Toshnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning MHXS boyicha transformatsiyasi zarurati, mohiyati va bosqichlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 3-son, may-iyun, 2017.
6. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b

7. Misirov K., Kurbanov Z., Abdibayeva T., Ochilov O. Teoriya buxgalterskogo uchyota. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –260 b
8. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ* (pp. 376-378).
9. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
10. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
11. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
12. Samiyeva G. Dehqon xo'jaliklarini tadqiq etishning nazariy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 171-176.
13. Samiyeva G. T. Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2022. – Т. 4. – №. 3. – С. 122-126.
14. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳатлар кўлами. *Архив научных исследований*, (29).
15. Установ Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. *Илкогретим Онлайн*, 20 (3).
16. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
17. Alikulova, A. (2020). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SECURITIES OF COMMERCIAL BANKS AT THE RSE “TASHKENT”. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 13.
18. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодиётни либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.
19. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
20. Djalilov, R. H. (2021). The role of the cameral tax audit in the tax control of the republic of uzbekistan.
21. ДЖАЛИЛОВ, Р. РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ИНФОРМАЦИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ. *ECONOMICS*, (3), 42-46.
22. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
23. Turobov, S. A., & Faxriddinov, B. F. (2021). DEVELOPMENT OF HOME-ENTREPRENEURSHIP-GUARANTEE OF AGRICULTURE STRATEGY. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).

24. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ў. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ-ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
25. Hakimovich, B. A. (2021). Prospects for the development of the fruit and vegetable products market. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1270-1278.
26. Бердиев, А. Х., Фармонов, Ж. Б., & Расулов, Х. К. (2020). Эффективность переработки маслосодержащего сырья: проблемы и пути их решения. *Вестник науки и образования*, (13-3 (91)), 6-12.
27. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
28. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
29. Azimova, H. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
30. Алимханова, А. Н., & Мицель, А. А. (2019). Оценка эффективности предприятий на основе метода DEA. *Доклады Томского государственного университета систем управления и радиоэлектроники*, 22(2), 104-108.
31. Равшанов, А. Д., Хасанов, Ш. Х., & Алимханова, Н. А. (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш
32. Жумаева, Г. Ж., Хасanova, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
33. Жумаева, Г. Ж. (2020). ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОГО УЧЕТА И АНАЛИЗА. *Экономика и социум*, (3 (70)), 283-286.
34. Музafferova, К. З., & Эгамбердиева, С. Р. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИНГ РОЛИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(1).
35. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 42-47.
36. Аминов, Ф. Б. (2022). РОЛЬ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ. *Economics*, (1 (51)), 26-29.
37. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 232-237.